XALQ DEPUTATLARI XIVA SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 5-avgust VI-102-66-12-217-K/24 Xiva shahar

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2023-yil 15-dekabrdagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tuman (shahar)lar ma’muriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan “Yo‘l xaritasi”ga muvofiq Xiva shahrining ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash to‘g‘risida

“O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonunining 11-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2023-yil 15-dekabrdagi “Yo‘l xaritasi” ijrosini ta’minlash maqsadida Respublika ayerogeodeziya markazi Xorazm hududlararo bo‘linmasi Xiva shahrining ma’muriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar, shu jumladan xaritalar va chegaralar chizig‘i tavsifi tayyorlandi.

Xiva shahar chegara chiziqlari Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarori 1-ilovasiga asosan unga chegaradosh tumanlardan oldin tayyorlangan hujjatlar bo‘yicha olingan.

Respublika ayerogeodeziya markazi Xorazm hududlararo bo‘linmasi tomonidan tayyorlangan Xiva shahrining ma’muriy-hududiy birligiga doir hujjatlar, xaritalar va chegara chizig‘i tavsifini xalq deputatalari Xiva shahar Kengashining navbatdagi sessiyasida ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritish lozimligini bildirdi.

Kun tartibidagi masalani atroflicha muhokama qilib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq xalq deputatlari Xiva shahar Kengashi

Qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Bosh Vazirining 2023-yil 15-dekabrdagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tuman (shahar)lar ma’muriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan “Yo‘l xaritasi”ga muvofiq Xiva shahrining ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash yuzasidan Kadastrlar palatasi Xiva shahar bo‘limi boshlig‘i A.Jalilovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Respublika aerogeodeziya markazi Xorazm hududlararo bo‘linmasi tomonidan tayyorlangan Xiva shahrning ma‘muriy-hududiy birligi, ya’ni chegarasi ilovaga muvofiq tasdiqlash uchun xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashiga kiritilsin.

3. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (X.Ismoilov) zimmasiga yuklatilsin.

4. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi DAVLETOV TEMUR ISMOILOVICH

Xalq deputatlari Xiva shahar
Kengashining
2024-yil 5-avgustdagi
VI-102-66-12-217-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Xiva shahrining maʻmuriy-hududiy chegaralarini belgilash (yoki taqsimoti) toʻgʻrisida
M A ʼ L U M O T

T/r	Shahar nomi	Chegara uzunligi (metr)	Yer maydoni (gektar)
1	Xiva shahri	33110	3426,19

Xiva shahrining chegara
CHIZMASI

